

NIKOHNI BEKOR QILISH JARAYONIDA MEDIATSIYANI QO'LLASH MASALALARI

Ashuroxunova Diyoraxon Zuxriddin qizi

ashuroxunovad@gmail.com

Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti magistranti.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19651791>

Annotatsiya. Ushbu mavzuda mediatsiyaning umumiy tushunchasi, oilaviy nizolarni hal etish masalari, shuningdek, ahamiyati, muammolarini o'z ichiga oladi. Yurtimizda mediatsiya institutini yanada rivojlantirish, nikohni bekor qilish bilan bo'g'liq nizolarni muqobil hal etishda mediatsiyani qo'llash masalalari yoritiladi. Mediatsiya qo'llash masalasida yuzaga kelayotgan muammolar o'rganiladi. Mediatsiyani rivojlantirish maqsadida xalqaro tajribada qo'llanilgan usullar va bu usullarni yurtimizda tatbiq etish masalalari yoritiladi.

Kalit so'zlar. Mediatsiya, nizolarni muqobil hal etish, nikohni bekor qilish jarayoni, mediativ kelishuv, oilaviy mediatsiya.

Kirish. Bugungi globallashtatgan zamonda nizolarni hal qilishda mediatsiyaning o'rni tobora kengaymoqda. Shu jumladan, yurtimizda ham mediatsiya instituti rivojlanib borayabdi.

Mediatsiyaning maqsadi – nizolashuvchi taraflarning nizolarini mustaqil, o'zaro foydali shartlar asosida hal etish imkoniyatini topishga ko'maklashishdan iborat bo'lib, uning asosiy tamoyillariga ixtiyoriylik, taraflarning tengligi, betaraflik, mediatorning mustaqilligi, maxfiylik kabilar kiradi.

Mediatorlar taraflar o'rtasida vujudga kelgan muammo, kelishmovchilik va nizolarni hal etishga ko'maklashadilar. Bunda mediator dalillarni tekshirmaydi va taraflarning talablari qonuniyligiga baho bermaydi, aksincha mediatorning asosiy vazifasi – taraflar o'rtasida bir-birlarini tushunishga, taraflar uchun maqbul shartlarda muammoni hal etish imkoniyatlarini izlash va hal etishga ko'maklashishdan iboratdir.

Oilaviy nizolar, jamiyatimizda ajrimning kundan kunga ortib borayotganligi eng o'griqli nuqtalarimizdan biridir. Masalan, O'zbekistonda juftliklar nima sababdan ajrashayotgani tahlil qilingan. So'ngi tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, 2024-yilda sud orqali 32 217 ta oila ajrashgan: 17 535 ta holatda (54 foiz) xarakter to'g'ri kelmasligi, 1 807 ta holatda (6 foiz) boshqa nikoh munosabatiga kirishganligi, 1 222 ta holatda (4 foiz) oilaga tayyor emasligi, 1 033 ta holatda (3 foiz) o'zaro ishonchsizlik ajrashishga sabab qilib ko'rsatilgan.

O'sha yili FHDY organlarida 7 499 ta oila o'zaro oilaviy kelishmovchilik sababli ajratilgan¹. Mazkur raqamlar shuni anglatadiki, O'zbekistonda oilaviy nizolarni, xususan, nikohni bekor qilish jarayonini hal etishda an'anaviy sud mexanizmlaridan tashqari muqobil protsessual yondashuvlarga ehtiyoj tug'dirayotganini ko'rsatmoqda. Sud jarayonlarining cho'zilishi, taraflar o'rtasidagi ziddiyatning yanada keskinlashuvi hamda bolalar manfaatlarining zarar ko'rish kabi omillar oilaviy mojarolarni yengilroq, tezkor va nisbatan kam xarajatli usulda hal etish zaruratini yuzaga keltirmoqda.

Mediatsiya esa mazkur jarayonda nizoni raqobatli kurash sifatida emas, balki kelishuvga erishish jarayoni sifatida ko'rishga imkon beradi.

¹ Фуқаролик ва жиноят ишлари бўйича судларнинг 2024 йил давомидаги иш фаолияти тўғрисида статистик маълумотлар тўплами. –Тошкент, 2024 й

Mediatsiya orqali taraflar o'zaro manfaatlarni inobatga olgan holda, hissiy keskinliksiz, tezroq va kam xarajatli tarzda kelishuvga erishishi mumkin. O'zbekiston Respublikasida "Mediatsiya to'g'risida"gi Qonunning qabul qilinishi oilaviy nizolarni aynan mediatsiya orqali hal etishning huquqiy mexanizmlarini shakllantirdi. Mazkur qonuning 3-moddasida oilaviy nizolar ham medeatsiya orqali hal etish mumkinligi belgilab qo'yildi.

Mediatsiya instituti hozirgi kunda dunyoning ko'plab davlatlarida ishlab chiqilgan bo'lib, shu qatorda AQSH, Germaniya, Buyuk Britaniya, Avstriya, Yaponiya, Xitoy, Gonkong, Koreya, Hindiston va boshqa davlatlarda faoliyat yuritib kelmoqda. Shu bilan birga, bir qancha davlatlarda mediatsiyaga bo'lgan zaruriyat shu darajada oshdiki, ushbu munosabatlarni qonun yo'li bilan tartibga solish maqsadga muvofiq va ba'zida zarur ham bo'lib qoldi.

Avvalo, jamiyatimizda mediatsiyani qo'llash bilan bog'liq yuzaga kelayotgan muammolarni, oilaviy mediatsiya nega hali ham keng qo'llanilmayotganini sabablarini aniqlab olishimiz zarur. Bizning fikrimizga ko'ra ular quyidagilar: mediatsiya tartibi to'g'risidagi qonun hujjatlaridagi kamchiliklar, ixtisoslashtirilgan davlat mediatsiya markazlarining yo'qligi.

Fuqarolar mediatorlik xizmatlarini ko'rsatuvchi "ofislar"ga ishonmaydi va xususiy mediatorlar xizmatiga kamdan-kam murojaat qiladi, yaxshi reklamani yo'qligi. Afsuski, oiladagi nizoni hal qilish uchun mediatsiyaga murojaat qilish mumkinligini hamma ham bilmaydi. Shuning uchun oilaviy mediatsiyaning mazmuni va ahamiyati ommaviy axborot vositalari orqali keng ommaga yoritilishi kerak.

Xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, Fransiyada sudga kelib tushgan da'vo arizalari dastavval majburiy tartibda kelishuv bo'limiga beriladi va mazkur nizo yopiq sud majlisida kelishuv asosida hal qilinadi. Kelishuv bo'limida ikkala tomondan saylangan vakillar ishtirok etib, ular o'z faoliyatlarini ishni kelishuv asosida tugatishga yo'naltiradi.

Ushbu jarayonda erishilgan kelishuv bitimini rasmiylashtirishning soddalashtirilgan usuli qo'llaniladi, ya'ni taraflarning kelishuv bitimi sud hal qiluv qarorlari kabi kuchga ega bo'lgan bayonnoma bilan rasmiylashtiriladi, ushbu bosqichda ish bo'yicha guvohlar jalb etilmaydi hamda ish mazmunan ko'rib chiqiladi².

Yurtimizda ham nikohni bekor qilish uchun sudga da'vo arizasini berishdan avval majburiy mediatsiya tizimini joriy etish. Ushbu tizimni asosiy maqsadi shundan iboratki, birinchidan, sud yuklamasi kamayadi. Ikkinchidan, ortiqcha xarajat qilinmaydi ya'ni davlat boji va advokat uchun sarflanadigan pul tejaladi. Uchinchidan, mediatsiya sudga qaraganda tezroq, vaqt tejaladi. To'rtinchidan, mediatsiyada bolalar manfaati ko'proq himoya qilinadi, bolalarga ruhiy bosim kamroq tushadi. Oxirgisi esa, mediatsiya orqali nizolar hal etilganda, taraflarning murosaga erishish salohiyati oshadi. Albatta, bu borada istisnoli holatlar mavjud bo'lishi kerak. Masalan, oilaviy zo'ravonlik holatlarida, boshqa shaxs bilan nikoh munosabatlarida va boshqa hollarda.

Mediatsiyani oilaviy nizolarni hal etishda keng qo'llanilmayotganining sabablaridan biri – ixtisoslashgan mediatorlarning yetishmasligi. Masalan, oilaviy nizolarni hal etish uchun mediator maxsus psixologik kurslarni tugatgan, yetarli malakaga ega bo'lishi hamda tomonlarning manfaat va istaklarini inobatga olgan holda ish tutishi kerak hamda ajrimning to'liq mohiyatini aniqlash kerak.

² Масадиков Ш.М Медиация по семейным делам во Франции// Материалы научно-практической конференции «Оила қонунчилигини такомиллаштириш муаммолари». – Ташкент: ТГЮИ, 2008.С. 113-117.

Mazkur muammolardan ko'rinib turibdiki, yurtimizda mediatsiyani yanada rivojlantirish, ommalashtirish uchun keng ko'lami ishlar amalga oshirilishi kerak. Ko'plab rivojlangan davlatlar oilaviy mediatsiyani hududlar kesimida tashkil etishni oilaviy nizolarni sudgacha hal etishning eng maqbul yo'li deb hisoblaydilar. Bu markazlar sudlar yuklamasini kamaytiradi, murosaga erishish tezligini oshiradi hamda oilaviy kelishmovchiliklarning farzandlar ruhiyatiga salbiy ta'sirini kamaytirishga xizmat qiladi.

AQSH da har bir tumanda "Family Mediation Center" mavjud bo'lib, mazkur markazlar sudga yaqin joylashadi, shuningdek mediatorlar maxsus litsenziya asosida oilaviy nizolarni hal etish uchun ish olib boradi. Markazning samaradorligi shundaki, 40-60% nizolar sudgacha hal etilgan³. Oilaviy mediatsiya markazlarini O'zbekistonga moslashtirish. Har bir tuman yoki shahar hududida shu kabi Oilaviy mediatsiya markazlarini ochish. Sudga murojaat qilishdan oldin, nizoni aniqlab mediatsiya qo'llash va psixolog, mediatorlar bilan samarali ish olib borish taklifini ilgari suramiz.

Xulosa qilib shuni ta'kidlash joizki, mediatsiya instituti jamiyatimizda rivojlanishga muhtoj. Uni yanada rivojlantirishimiz, keng ommaga targ'ib qilishimiz zarur. Avvalo, mediatorlarning malakasini oshirish, ixtisoslashgan mediatorlar tayyorlashimiz va xorij tajribasini, usullarini o'rganib mamlakatimizda tatbiq etish masalalarini ko'rib chiqishimiz kerak. Shuni ta'kidlash joizki, ixtisoslashgan Oilaviy mediatsiya markazlarini tashkil etish nizolarni psixologik, professional yondashuv asosida hal etish imkonini beradi. Bunday markazlar mediatorlar malakasini oshiradi va taraflar uchun maslahat va kelishuv maydonini yaratadi.

Xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, nikohni bekor qilish jarayonida sudgacha majburiy mediatsiya joriy etilishi sud yuklamasini kamaytiradi, taraflar o'rtasidagi muloqotni tiklaydi va kelishuv darajasini oshiradi. Bundan tashqari, sud xarajatlari qisqaradi va jarayoning nisbatan tezroq hal bo'lishiga xizmat qiladi.

Shu bois, oilaviy mediatsiya markazlarini rivojlantirish va sudga murojaat qilinishidan avval majburiy mediatsiya bosqichini joriy etish nikohni bekor qilish jarayonining samaradorligini sezilarli oshiradi hamda jamiyatda kelishuv madaniyatining mustahkamlanishiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. California Family Code §3160–3188 – Family Court Services and Mediation
2. Масадиков М.Ш. Медиация-альтернативный способ разрешения гражданско-правовых споров. Учебное пособие. – Ташкент: ТДЮИ, 2010. – 100 с.
3. Масадиков М.Ш. Медиация по семейным делам во Франции// Материалы научно-практической конференции «Оила қонунчилигини такомиллаштириш муаммолари». – Ташкент: ТГЮИ, 2008.С. 113-117.

³ California Family Code §3160–3188 – Family Court Services and Mediation.